O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING FARQLI JIHATLARI

F.G.Sharipov - Guliston davlat universiteti
E.F.Sharipova - Guliston davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adaboyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Tilshunoslik fani ham ming yillar davomida tilga “kishilar orasida eng asosiy aloqa vositasi”, “fikrni shakllantirish, ifodalash va uqishning eng asosiy vositasi”, “xalq (millat)ning ruhi”… sifatida yondashib kelgan davrlarda Arastudan Sossyurgacha bo‘lgan olimlarning hodisalarni taraqqiyot zanjiridan ajratib, bu zanjirning ikki chekkasini qarama-qarshiliklar sifatida ta’riflashi bilan cheklanib qolishi, “sog‘lom aql” doirasida bemalol ish ko‘rishi mumkin edi. Lekin endi bugun – tilga nafaqat yuqorida berilgan ta’riflar asosida, balki insonda mustaqil ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida yondashilayotgan, til va til ta’limi barkamol shaxsni etishtirishning muhim omillaridan biri bo‘layotgan bir davrda, oldingi ta’rif-u tavsiflar bilan – alohidaliklar, zidliklar tilshunosligi deb atalishi mumkin bo‘lgan Arastudan Sossyurgacha bo‘lgan davr tilshunosligi bilan – cheklanib qolish mumkin emas. Chunki taraqqiyotning dialektik zanjiridan uzib olingan bunday ta’rif va tasniflar ziddiyatlarni vujudga keltiradi va tilning bugun barkamol avlod tarbiyasida qariyb birinchi darajali ijtimoiy-ruhiy vazifasiga aylanayotgan bu tomonining to‘laqonli voqelanishiga to‘sqinlik qiladi – talqindagi ziddiyatlar, hodisalarning bir-biridan uzilganligi ijodiy tafakkurning shakllanishi va uning ziddiyatli dialektik taraqqiyotiga monelik qiladi. [7]

Tilshunoslikdagi ziddiyatlar til qonuniyatining asosi hisoblanadi. Demak, dastlab hodisalar o‘rtasidagi farqli jihatlarni o‘rganish til qonuniyatlarini mukammalashtirish hamda uni ilmiy asoslashga xizmat qilishini tushunishimiz lozim. Jumladan, dunyo tilshunosliklar o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni o‘rganish esa til taraqqiyotining kelajagini belgilab beradi. Aynan o‘zbek va ingliz tillardagi farqli va o ‘xshash jihatlar ham shular jumlasidandir:

- o‘zbek tilshunosligida qo‘shimchalar faol ravishda qo‘llanilishi leksemadan keyin joylashuvidan iborat bo‘lib, bunga -chi, -lik, -ona, -siz, -li kabi qo ‘shimchalarni kiritish mumkin. Masalan, Mo‘ydinning jarchisi tomoq yirtib qichqirib yuribdi: -Hoy, un yalagan alloflar, qon yalagan qassoblar, chorbo-zorchi jalloblar! Mo‘ydshbekni qutlanglar. Ingliz tilida faol qo‘llanish holatlari leksemadan oldin hamda keyin kelishii bilan ajralib turadi. Masalan, *un-happy, kind*-ness – *Kindness is a language that everyone understands;*[8]

- o‘zbek tilshunosligidagi so‘zlar asosan **qo‘shimchalar** orqali yasaladi, ya’ni tilda **agglyutinativ** xususiyat kuchli ekanligidan dalolat beradi. Buda har bir qo‘shimcha bitta grammatik ma’no beradi. Masalan, *Biz ijodiy kechalarni shunday **o‘**tkazaylikki, faqat yozuvchilar qatnashmay, bunga keng jamoatchilik qatnashsin. Bu holat i*ngliz tilida ham mavjud bo‘lib, u a**nalitik** til bo‘lib, qo‘shimchalar kamroq, lekin **murakkab** so‘zlar

[7] Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
[8] Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372; Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.

ko‘proqni tashkil etadi. Biroq ba’zida bir necha ma’no bitta qo‘shimcha orqali ifodalanishini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, She showed great kindness to the elderly woman;

- farqli va o‘xshash jihatlarning keying me’yori ko‘pchilik qo‘shimchalar o‘zbek tiliga xos yoki turkiy ildizga ega ekanligi nazarda tutilgan. Masalan, **jamiyat, jamol leksemalari arab tillariga, jangari, jangovor leksemalari fors tiliga mansub bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligidagi aksariat leksemalar turkey tillarga xosdir. Chunki o‘zlashma so‘zlarga turkiy tillarga xos qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida yasalma turkiy tillarga xos vazifa bajarishi bilan ajralib turadi. Masalan,** Taassufki, **o‘**tli so‘z, jangovarlik o‘rnini rahbarlar soyasiga qulluq qilish, ya’ni laganbardorlik egallab olgan. Ingliz tilida esa ko‘p qo‘shimchalar lotin, yunon, fransuz tillaridan kirib kelganligini kuzatamiz. **Lotin tilidan kirib kelgan qo‘shimchalarga** pre- – oldin (e.g. **preview**, **predict**); sub- – ostida (e.g. **submarine**, **subway**); inter- – o‘rtasida, orasida (e.g. **international**, **interact**); trans- – ortiq, o‘tish (e.g. **transport**, **transform**); tion / -sion – harakat, holat (e.g. **action**, **decision**); -able / -ible – mumkin bo‘lgan, qila oladigan (e.g. **readable**, **invisible**); -ment – holat, jarayon (e.g. **development**, **movement**); y**unon tilidan kirib kelgan qo‘shimchalar** anti- – qarshi (e.g. **antibiotic**, **antivirus**); auto- – o‘zi, avtomatik (e.g. **autograph**, **automatic**); tele- – uzoq (e.g. **telephone**, **television**); photo- — yorug‘lik (e.g. **photograph**, **photosynthesis**); -logy – fan, o‘rganish (e.g. **biology**, **psychology**); -phobia – qo‘rqish (e.g. **claustrophobia**, **xenophobia**); -cracy – boshqaruv (e.g. **democracy**, **bureaucracy**); f**ransuz tilidan kirib kelgan qo‘shimchalarga esa quyidagilar kiradi** en- – ichiga, holatga (e.g. **enrich**, **encourage**); de- – olib tashlash, pastga (e.g. **descend**, **devalue**); -age – jarayon yoki holat (e.g. **marriage**, **voyage**); -ette – kichikroq versiya (e.g. **kitchenette**, **cigarette**); -ess – ayol jinsiga xos (e.g. **actress**, **princess**) kabilarni misol sifatida keltirish mumkin.[9]

Bu ikki tildagi yana bir jihatga alohida e’tibor berish lozimki, bunda o‘zbek tilidagi leksemalardaga qo‘shilgan qo‘shimchalar talaffuzga unchalik ta’sir qilmaydi. Masalan, ish, ishchi. Ingiliz tilida esa qo‘shimchalar talaffuz va urg‘uga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, photograph – photography – photographic.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz tillardagi bu to‘rt farqli jihat tillarning bir-biridan ayri holatini ifodalashi bilan birga, ularning leksik, semantik, grammatik va sintaktik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan til qonuniyatlarini ko‘rsatib turganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.
4. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.
5. Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. Гулистон, 2022, 252 б.

[9] Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.; Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. –Гулистон, 2022, 252 б.